

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

## KITOB INSONNI O'ZGARTIRADI, INSON DUNYONI.

### Ashurova Yulduz.

Osiyo xalqaro universiteti, boshlangich ta'lif yo'naliishi 1- bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Yurtimiz yoshlarining kitobga bo'lgan munosabati, kitobning inson hayotidagi o'rni, Yevropa va O'zbekistonda mutolaaga bo'lgan talablar aniq fakt va statistikalar bilan yoritiladi. O'quvchiga motivatsiya o'laroq adabiyotlardan iqtiboslar va muvaffaqiyatga erishgan shaxslar fikrlari keltiriladi.

**Kalit so'zlar:** kitob, mutolaa, ilmsizlik, mahzunlik, jamiyat, munosabat, xalq, kutubxona, akademiya, aql, miya.

**Kirish. Kitoblar** – aziz va mukarram inson qalbiga hadya etilgan hikmat yog'dusi, ruhini uyg'otuvchi buyuk eslatma. Qalam bitgan azaliy dardlar, siyohlardan qog'ozlarga to'kilgan abadiy ohlar, satrlarga singgan haq timsoli. Misralarda miltillagan eng yorug' nur-u tajallisi, jumalarga jo bo'lgan haqiqat timsoli. Sahifalarda sochilib yotgan ulug' mo'jizaning ilohiy quvvati. Muqovalar ostida tilsimlangan sir, jildlar qatida ehtiyyotlangan buyuk so'z qudrati.

Kitoblar bizni shaxs sifatida rivojlanishimiz uchun eng zarur bo'lgan hayot manbai. Hozirgacha har bir jamiyat a'zolarining kitobga bo'lgan munosabati o'sha jamiyatning ilmga bo'lgan munosabati o'chovi bo'lib kelgan. Shu holat musulmonlar hayotida ham o'z aksini topgan. Milodiy to'qqizinchilasidan boshlab musulmonlarda haqiqiy boylik deganda kitob tushunilgan. Birovga eng qimmatbaho hadya qilishni xohlagan odam kitob olib borgan.

Bog'dod xalifasi xalqqa arzigulik biror hadya qilish haqida o'z vazirlariga maslahat solganida, hammalari bir ovozdan yaxshi bir kutubxona hadya qilishga ishora etganlar. Bu kutubxona musulmonlar ommasiga hadya etilgach, 'Dorulhikma' nomini olgan va keyinchalik dunyodagi birinchi fanlar akademiyasiga aylangan.

Bobokalonimiz Ibn Sino ham o'z qimmatli vaqtini mutolaa bilan ziynatlantirib, dunyoga mashhur 'Avicenna'ga aylandi. Shuni aytib o'tish kerakki, VII-VIII asrda eng ko'p nashr qilingan kitob 'Injil' bo'lsa, undan keyingisi 'Al-Qonun fit-tib' asari bo'lgan. O'sha davr Buxoro amiri Muhammad Mansur qasrning ko'p qismini kitoblarga ajratgan edi. Ibn Sinodan muolaja olgan amir kutubxonasidan foydalanishiga olishiga ijozat bergen. Bu kutubxona

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

bilan yaqindan tanishgan Ibn Sino keyinchalik ‘Bu yerda odamlarning ko’pchiligi nomini ham eshitmagan kitoblarni ko’rdim’ deb yozgan.

Xattoki, xalqimiz qo’lida kam sonli kitob saqlanib qolgan bo’lsada, onaxonlarimiz oila davrasida kichik darsxonalar tashkil qilib, mutolaa bilan mashg’ul bo’lgan. Albatta, bu an’ana farzand tarbiyasida muhim omil bo’lib xizmat qilgan.

Bundan tashqari har bir muassasaning o’z kutubxonasi bo’lgan. Bunday ajdodlar avlodi, dunyoga ikkita renessans taqdim etgan dunyo fotixlari, texnologiyaning, ilk sivilizatsiyaning mukoshiflari farzandlari o’laroq ilmdan orqada qoldikmi? Yoki oldinda edik, to’xtab qoldik. Orqadagilar o’tib ketishdimi? Mazkur tahlillar orqali yurtimizda nashriyotga va mutolaaga talab kamaygani, inson qalbini xira qiladi.

O’zbek bozorida (37 million aholi uchun) oxirgi 2 yilda 300 nomdan ko’p bestsellerlar nashr qilindi, 1ta bestseller asar kamida 10 000 nusxada chop etilgan.

Turkiya bozorida (80 million aholi uchun) 1ta bestseller kitob 1 milliondan ortiq nashr etilgan. Ya’ni aholisi yurtimizdan 2 barobar ko’p bo’lsada, kitobga talab 100 barobar ko’p.

Bu ko’rsatgich juda past bo’lib, kitob o’qimaslik birinchi o’rinda nutqimizga ta’sir qilsa, keyinchalik esa tilimizni yo’qolib ketishi bilan tugaydi. Shuning uchun, hozirda tilimizni 60-70 ni % chet el terminlari egallab olgan. Chet tillarni o’rganishimiz, davlarlararo sayohat qilishimiz bu juda yaxshi, ammo bular o’z tilimiz va qadriyatlarimiz evaziga bo’lishi o’ta xavotirlanarli. Shu o’rinda savol tug’iladi: nutqimiz va tilimizni rivojlantirish uchun nima qilish kerak? Mutaxassislarning fikricha, badiiy kitob o’qigan insonning nutqi ravon, fikri tiniq bo’lishi ta’kidlanadi. Ko’pincha, ba’zi kitoblarni 1-2 bet o’qigandan keyin, tushunmaslik yoki davom ettirolmaslik kuzatiladi. Buning eng asosiy sabablari:

1. Kitobni noto’g’ri o’qish va o’qish vaqtini belgilashda xatolik.
2. O’z darajangizdan yuqori darajali (IQ darajali) kitobni tanlash.

Yechimlari esa:

Birinchisi, kitob o’qishning dastlabki paytlarida, hajmi kichik kitoblar bilan boshlash va kam miqdordan boshlab davomiy ko’paytirib borish. Vaqt masalasida esa, Mark Tvenning ajoyib taqqoslovini aytib o’tishni lozim tutdim. ‘Agar sening kunlik vazifang ikkita qurbaqa yeyish (Germaniya tomonlarda qurbaqa yeyish odatiy hol) bo’lsa, kattasini ertalab ye’,- ya’ni vaqt, energiya,

# FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

diqqat talab qiladigan ishlarini boshida – tong saxardan boshlash maqsadga muvofiqdir.


Ikkinchisi, o'z darajasida kitob tanlashda avvalo ustozdan maslahat olish va kitob tezis va mundarijasidagi mavzular bilan tanishib chiqilsa, tanlash osonlashadi.

Kitob turlari:

- Biznes sohasidagi kitoblar;
- Sotuv-marketing;
- Menedjment;
- Shaxsiy rivojlanishga doir kitoblar.

Kitob o'qimaslik sabablarini qidirsak, Maslou piramidasiga (ehtiyojlar piramidi) yuzlanamiz.

Bosqichlar (pastdan yuqoriga):



1. Fiziologik ehtiyojlar
2. Xavfsizlik zarurati
3. Muhabbatga muhtojlik/Biror narsaga mansublik
4. Hurmatga bo'lgan ehtiyoj
5. Bilimga bo'lgan ehtiyojlar
6. Estetik ehtiyojlar
7. O'z-o'zini namoyon etish zarurati.

Insonning toki fiziologik ehtiyojlar qonmas ekan, xavfsizligi ta'minlanmas, ekan kitob o'qimaydi. Bu eng katta sabablardan biri hisoblanadi. Toki shu ehtiyojlar qondirilmas ekan, inson bular payida bo'ladi. Bizning hudud aholisi asosan oxirgi bosqichlarda. Lekin unutmaslik kerakki, inson potensiali, resursi rivojlansa, jamiyat yuksaladi. Mana nima uchun yoshlarmiz 4-5 yil oldin san'atkor yoki qo'shiqchilarga ergashgan bo'lsalar. Hozirda esa biznesmenlarga, influenserlarga, jamiyatda o'z o'rniiga ega motivator yoki mentorlarga ergashish oldingidan ancha kuchaydi.

Nyu-York metropoliteni dunyodagi eng katta metropoliten hisoblanadi. U yerda 36ta yo'naliш va 472 ta uzunligi 1300 kmli stansiya mavjud bo'lib, har kuni 5,5 millionga yaqin yo'lovchi xizmat qiladi.

Unda siz 3 toifa insonlarni uchratasiz;

1. Uxlab ketayotgan;
2. Kitob o'qib ketayotgan;
3. Qulqochi taqib ketayotgan (katta ehtimol bilan audiokitob)

## FAN, TA'LIM, TEKNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI

Bu ko'rsatgichlarni o'z hududumiz avtobus yoki metrolari bilan solishtirmasa ham bo'ladi. Bularning hammasi insonlar o'ziga qilgan investitsiya va yashash tamoyillarini o'zgartirishlari hisobigadir.

Yana bir narsani aytib o'tish kerakki, kitob o'quvchilarga milliy ong, milliy g'urur, qadriyat tushunchalarini singdirishi oson va tamal tosh bo'lgan desak adashmaymiz.

Shu o'rinda yurtimizda oxirgi yillarda kitobda targ'ibotlarni aytib o'tmasak, nohaqlik bo'ladi. O'zbekiston Oliy Majlisi Senatining a'zosi, Yoshlar agentligi direktori Alisher Sa'dullayev tashabbuslari bilan 'Yosh kitobxon' ko'rik tanlovi o'tkazilmoqda, hamyurtlarimizni kitobga qiziqtirish maqsadida 'Mutolaa' platformasi tuzilib, 110 dan ortiq kitoblar (badiiy, hikoya, ertak va ilmiy ommabop asarlar)ning audio va elektron variantlari tayyorlanib, mobil ilovaga joylashtirilgan. Yana shu ilova orqali har oy 'eng kitobxon' regionlar aniqlanib boriladi. Bundan tashqari yurtimizda oxirgi 2 yilda juda ko'p nashriyotlar ishga tushib, o'quvchilarga o'zbek asarları bilan birligida, chet el asarları ham tarjima qilib taqdim etilmoqda. Bu esa inson qalbini shururga to'ldiradi.

**XULOSA.** Hozirda o'qimayapmiz emas, o'qiyapmiz, lekin o'zimizga kerak bo'lмаган gaplarni, bir tiyinga qimmat, inson qalbini jumbushga keltiradigan xabarlar bilan o'z qarashlarimizni o'zgartiryapmiz. Faqtgina kitobxonlik orqali, ilm-fan orqaligina biz kelajak avlodlarni, butun insoniyat g'amini, ummat g'amini o'ylaydigan qilib tarbiya eta olamiz xolos. Kitobdan tashqarida, telefonda aylangan gaplar, yoyinki, oddiy maishiy hayot muammoari bilan barkamol avlod yetishmaydi. Shu bilan birga, ta'kidlash joizki, aynan ayollarning kitobsevar, ilmsevar bo'lishi insoniyat taraqqiyotidagi eng asosiy shartlardan va birlamchi qadamlardan hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf 'Hadis va hayot' asari.
2. G'iyosiddin Yusufning 'Men ham kitob o'qiymen' kitobi.
3. Najot Nur janoblarining nutqlaridan iqtiboslar.
4. 'Hasanboy' masjidi bosh imomi Hasanxon Yaxyo hazratlarining nutqlaridan iqtiboslar'.